

Liddel Gart yozgan "Jahon urushi tarixi" kitobining yigirma ikkinchi sahifasida shunday ma'lumot berilgan: Britaniyaning 13 ta diviziyasi bir ming to'rt yuzta zambarak yordamida Sen-Montoban jabhasiga 1916 yil 24 iyulga qilinadigan hujumni yigirma to'qqizinchiligi yil ertalabiga ko'chirishga to'g'ri keldi. Kapitan Liddel Gartning fikricha, bunga kuchli yomg'irlar sabab bo'lib, o'z holicha bu unchalik muhim ahamiyatga molik emasdi. Sindor shahridagi Oliy mакtabning sobiq inglez tili o'qituvchisi doktor Yu.Sun tomonidan aytib turib yozdirilgan va o'qib chiqib imzolagan quyidagi bayonnomaga shu voqeaga birdaniga oydinlik kiritdi. Matn boshlanishida ikki sahifa yetishmasdi.

"...Telefon go'shagidan olmoncha javob qaytargan ovoz egasini tanidimu go'shakni qo'ydim. Bu kapitan Richard Meddenning ovozi edi. Medden Viktor Runebergning uyida! Demak, bizning barcha harakatlarimiz zoye ketdi, shu bilan birga (garchi bu men uchun ikkinchi darajali bo'lib ko'rinsa ham) o'zimiz ham tamom bo'ldik, degani. Demak, Runeberg yo qamoqqa olingan yoki o'dirilgan. Quyosh botmasdanoq mening ham sho'rlik boshimga ish tushadi. Medden ayab o'tirmaydi. To'g'rirog'i, u shunga majbur.

Derazadan, har doimgidek, tomlar va kechki botayotgan quyoshning xira nurlari ko'rinish turardi. Biror voqeasodir bo'lishini oldindan bilib bo'lmaydigan oddiyigina begin kuni menin ajalim yetishiga sira ishongim kelmaydi. Men, otadan yetim qolgan, go'zal va so'lim Xayfin bog'chasida o'ynab yurgan bola edim. Nahotki, hammasi tamom bo'lsa? Shu payt o'ylab qoldim: dunyodagi barcha odamlarga hozir nimalardir bo'layapti, aynan hozir. Asrlar ketidan asrlar o'taveradi, voqealar sodir bo'laveradi. Hozir ham qanchadan-qancha odamlar havoda, quruqlikda, dengizda, bir nimalar qilayapti, lekin u narsalarga menin aloqam yo'q. Menda sodir bo'layoutotgan narsa faqat mengagina taalluqli bo'lgan narsadir. Meddenning cho'ziq uzunchoq basharasini eslashim bilanoq barcha o'y-fikrlarim chalkashib ketdi. Qo'rquv aralash nafrat bilan (qo'rqoqligimni tan oldim, endi esa Richard Meddenni boplab aldagach, tez orada meni qatl qilishlarini kutayapman) o'yladim: bu qo'pol, o'ziga bino qo'yan, o'zicha baxt nashidasini surayotgan galvars menin bu sirni bilishimni, ya'ni Britaniya artilleriyasining Angor vodiysidagi yangi joylashgan manzili nomini aniq bilishimni xayoliga ham keltirmaydi.

"Qochish kerak", - dilimdagagi tilimga chiqdi. Go'yoki meni Medden ta'qib qilayotgandek, asta o'rnimdan turib, sekingina yura boshladim. O'zimning ayanchli ahvolimga yana bir bora iqror bo'lish uchunmi, negadir cho'ntaklarimda nimalar borligini ko'rmoqchi bo'ldim. Kutganimdek, cho'ntaklarimdan amerika soati, nikellangan zanjirga osilgan kvadrat shakldagi tanga, meni fosh qilishi mumkin bo'lgan, endi esa keraksiz bo'lib qolgan Runeberg uyining kalitlari, yon daftarcha, xat (men uni yo'qotmoqchi edim, lekin negadir qoldirdim), bir krona, ikki shilling va bir necha pens, qizil-ko'k qalam, ro'molcha, bir o'qlangan to'pponcha chiqdi. Nima uchundir, balki qat'iyatl bo'lish istagidadir, uni mahkam qisdim, salmoqlab ko'rdim. Miyamdan noaniq bir fikr o'tdi: o'q ovozi uzoqdan eshitiladi. O'n daqiqadan so'ng menin rejam tayyor bo'ldi. Telefon daftarchasidan men beradigan xabarni yetkazishi mumkin bo'lgan yagona odamni topdim. U temir yo'ldan borilganda yarim soatli masofada - Fenton atrofida yashardi. Unchalik dovyuraklardan emasman. Bunga hozir ham iqror bo'lishim mumkin. Mo'ljallangan narsamni oxiriga yetkazdim, ammo bu qanchalik dahshatli kechgani o'zimgagina ayon. Bu ishni Germaniya uchun sodir etmadim, aslo. Mendan josus sifatida foydalangan, xo'rlagan bunday vahshiy mammakatni hecham qadrlamayman. Angliyada bir oddiyigina odamni bilardim, u men uchun Gyotedan kam emasdi. U bilan bir soatcha gaplashdim va u Gyote bilan teng ekanligiga amin bo'ldim...

Boshlig'imiz men va menga o'xhash toifadagi, tomirlarida behisob ajoddlari qoni oqib turgan odamlardan jirkanadi. Ohista kiyindim, vidolashgandek ko'zguga qaradim-da, uydan chiqdim. Bekat unchalik uzoq emasdi, lekin men keb[1]dan foydalanish ma'qul deb o'yladim. Shunday qilmasam, bu kimsasiz ko'chada meni ko'rib, tanib qolishlari mumkinligiga o'zimni ishontirdim, qolaversa, mutlaq himoyasiz ham edim. Yodimda: kebni vokzalning katta darvozasiga yetmasdan to'xtatishni buyurdim, ataylab shoshmasdan tushdim. Eshgrou nomli manzilgacha borishim lozim edi, lekin chiptani undan uzoqroq bo'lgan bekatgacha oldim. Poyezd sakkizu ellikda jo'nashi kerak, bir necha daqiqqa qolgandi. Men qadamimni tezlatdim, keyingi poyezd to'qqiz yarimda jo'naydi. Perron deyarli bo'm-bo'sh edi. Vagonma-vagon o'tib borar ekanman, bir necha fermerni, motam libosidagi ayolni, Tatsitning "Yilnomalar" kitobiga mukkasidan ketgan o'smirni, doka o'ralgan, ammo mamnun soldatni ko'rganim esimda. Nihoyat, vagonlar qo'zg'aldi. Bir kishi perronning oxirigacha yurib keldi, lekin u kech qolgandi: uni tanimasligim mumkin emasdi - u kapitan Richard Medden edi. Tamom bo'ldim: qaltirab, qo'rqinchli oynadan uzoqroqqa, o'rindiq chetiga g'ujanak bo'lib o'tirib oldim. Ruhimdagagi ojizlik va qo'rquv tez orada qandaydir ich-ichimdan kelgan quvonchga aylandi. O'z-o'zimga dalda berdim: yakkama-yakka kurash boshlandi, birinchi olishuvda men g'olib chiqdim, arzimas qirq daqiqa yutdim, menga tashlangan raqibimni, mayli, tasodif tufaylimi, dog'da qoldirdim. Shu kichkinagini yutug'im katta g'alaba keltiradi, deb o'zimga tasalli berdim. Poyezdlar qatnovi jadvalidagi farq men uchun beba bo'lgan vaqt-ni in'om qildi, aks holda allaqachon qamoqqa olingan yoki o'dirilgan bo'lardim, demak, bu yutuqni arzimas narsa deb bo'lmaydi. Shunga o'xhash faylasufona fikrlarga berilib, o'zimni-o'zim ishontirdim: menga o'xhash qo'rqoqlarga ham omad kulib boqqanda har qanday ishni oxiriga yetkazish mumkin. Shu qilmishimdan o'zimda kuch-quvvat topdim va u meni keyinchalik ham tark etmadi. Shunday zamon kelishini sezib turibman: kundan-kunga odamlarni bir-biridan dahshatliroq bo'lgan ishlarni bajarishga majbur qiladilar; tez orada dunyoda faqat jangchilaru, kallakesarlar qoladi. Mening ularga maslahatim: eng dahshatli ishga qo'l urmoqchi bo'lgan odam shunday faraz qilsinki, go'yo u o'ylaganini amalga oshirdi, kelajagi esa o'tmish bo'lib qoldi, o'tmishni esa qaytarib bo'lmaydi. Mening ko'zimda, xuddi o'likning qoracho'g'idek, bo'lib o'tgan voqeas va hodisalar muhrlanib qolgandek tuyulardi, balki bu hayotimning so'nggi kunidir va u astasekin tun bilan almashayotgandir.

Poyezd daraxtzor oldidan yumshoqqina o'tib, nazarimda dalaning qoq o'rtasida to'xtadi. Bekat nomini hech kim e'lon qilmadi. "Bu Eshgroumi?" - deb so'radim perronda turgan bolalardan. "Eshgrou", - deb javob berishdi ular. Poyezddan tushdim. Platformani fonus yoritar, lekin bolalarning ko'zlarini qorong'ulik to'sib turardi. Bolalardan biri so'radi: "Sizga doktor Stiven Alberning uyi kerakmi?" Javobimni kutmasdanoq, boshqasi tushuntira ketdi: "Uning uyigacha ancha bor, mana bu chap tomondagagi yo'ldan boraverasiz va har gal yo'l ajaralganda chapga qayrilasiz, adashmaysiz."

Bolalarga oxirgi tangamni berdim-da, tosh zinalardan pastga, kimsasiz yo'lga chiqdim. Yo'l pastga qarab ketardi. Yolg'izoyoq tuproq yo'l, tepamda quyuq daraxt shoxlari soyabon bo'lib ketgan, to'lin oy ufqdan ko'tarilib go'yo meni kuzatib borardi. Birdan yaraqlab miyamdan bir fikr o'tdi - Richard Medden go'yo qaltis rejamni bilib olgandek tuyuldi. Darhol o'zimga tasalli berdim - bo'lishi mumkin emas.

Har doim chapga burilasiz, deb menga berilgan ko'rsatma ayrim labirintlardagi kabi markaziy maydonchani topishda umum qabul qilingan usulga o'xshab tuyuldi. Labirintlar haqida ancha-muncha narsani bilaman: axir men Yunan hukmdori Syuy Penning chevarasi bo'laman. U qatnashuvchilar soni jihatidan "Qizil qasrdagi tushlar" kitobidan ham o'tadigan roman yozish va har qanday kimsa adashib qoladigan darajada murakkab labirint yaratish uchun o'zining ikkinchi kasbidan voz kechgan. Bu ikki maqsadni

amalga oshirish uchun o'n uch yillik umrini sarf etgan va bir begona qo'lida halok bo'lgandi. Uning romani almoysi-aljoyi so'zlardan iborat, ma'nosiz bir yozuv sifatida qolib ketgan. Labirintni esa topolmaganlar. Sersoya ingliz daraxtlari ostida o'sha yo'qolib ketgan labirint to'g'risida xayol sura boshladim: tasavvurimda u pokiza holda, odam oyog'i yetmagan allaqanday sirli tog'lar cho'qqisida, bepoyon sholizorlar o'tasida yoki chuqr suvlar tubida, nafaqat o'zining sakkiz qirrali qubbalari-yu, aylanma yo'llarini, balki butun boshli daryolar, viloyatlar, mamlakatlarni o'z ichiga olgandek edi. Labirintlarning labirinti haqida, bora-bora chigallashib, kengayib boruvchi - o'tmishni ham, kelajakni ham qamrab olgan mo'b Bjizaviy tarzda, hatto Koinotni ham o'z bag'riga singdirgan cheksiz labirint haqida o'yladim. Tasavvurimda paydo bo'lgan bu shaffof ro'yolar og'ushida men o'zimning achchiq qismatimni ham unutib, vaqt o'lchovini ham yo'qotib, go'yoki butun olamning shuuri mening ongimda mujassam bo'lgandek, o'zimni olamning markazidek his qildim.

Shuuringa elas-elas ko'rinyotgan yashnab yotgan dalalar, botayotgan quyoshning so'nggi shu'lalari, tepalikdan yumshoqqina tushish charchog'imni ham quvib yuborgandi. Tarovatli va intihosiz bir oqshom edi. Yo'l esa tumanli o'tloqlar uzra uzoq-uzoqlarga yoyilib, tarmoqlanib ketgan. Allaqayerdan taralayotgan kuyni shamol goh olqishlayotgandek yuqori pardalarga olib chiqar, goh nola qilib uzoqlashar va yo'lga to'shalgan barglarning shitirlashi jo'r bo'lib, masofa ham huzur bag'ishlardi. Odamning dushmani faqat odamzodgina bo'lishi mumkin, deb o'yladim. U ular yashayotgan zamin dushman emas. Zamin o'zining yaltiroq qo'ng'izchalari ularning tovushlari, bog'-rog'lari suvlari, shu'lalari bilan barchaga barobardir. Shu asnoda zang bosgan baland darvoza oldidan chiqib qoldim. To'siq ortida xiyobon va ko'shingga o'xshash bino borligi sezilib turardi. Taralayotgan kuy shu yerdan kelayotganligini anglab yetdim: ajablanarlisi shundaki, bu xitoy musiqasi edi. Men kuyga berilib, boshqa narsalarni o'ylab ham o'tirmadim. Yodimda yo'q, darvozada qo'ng'iroqcha bormidi yoki men qo'ng'iroq tugmasini bosdimmi yoki oddiygina qilib taqillatdimmi? Kuy esa uzlusiz davom etardi.

To'siq ortida fonus shu'iasi ko'rindi, uning yorug'ida azim daraxtlar tanasi goh paydo bo'lar, goh zimiston qa'riga singib ketardi. Oyga o'xshash dumaloq fonus ko'targan baland bo'yli erkak kishi kelardi. Fonus nurlari ko'zimga tushib turgani sababli uning yuzini ko'ra olmadim. U darvozani qiya ohib, muloyimgina mening ona tilimda gap boshladи:

- Muhtaram Si Pen o'zining bu tashrifi bilan yolg'izlikda o'tayotgan hayotimga biroz bo'lsa-da, quvonch kiritishga qaror qilibdilar-da. Ehtimol, siz bog'ni ko'rmoqchi bo'lgandirsiz?

U meni bir mahallar vakillarimizdan birining ismi bilan atadi. Biroz esankiragan holda uning so'zini qaytardim:

- Bog', deysizmi?

- Ha-da, yoyilib ketgan so'qmoqlar bog'i.

Xotiramda nimadir to'satdan qo'zg'aldi va men o'zim ham tushuntirib bera olmaydigan darajadagi qat'iyat bilan aytdim:

- Bu mening bobokalonim Syuy Penning bog'i.

- Sizning bobokaloningiz? Siz o'sha mashhur insonning avlodimisiz? Marhamat qiling.

Xuddi bolaligimdag'i kabi shudringli yo'lka ilon izi bo'lib cho'zilib yotardi. Biz Sharq va Yevropa xalqlari tillaridagi kitoblar bilan to'la kutubxonaga kirdik. Sariq shoyi bilan muqovalangan yo'qolgan ensiklopediyaning bir necha nusxasini tanidim. Ushbu kitoblarining nashri bilan Munavvar Sulolaning Uchinchi imperatori shug'ullangandi, lekin nashr qilinmasdan qolib ketgandi. Bronzadan ishlangan humo qushining yonidagi grammofonda plastinka aylanardi. Pushti rangli chinni guldon yodimda, undan-da, qadimiyoq moviy ranglisi ham bo'lardi. Bizning ustalar Eron kulollaridan o'rgangandilar...

Stiven Alber kulimsirab meni kuzatib turardi. Aytib o'tganimdek, u novcha, ozg'in, qo'y ko'zli, oppoq soqolli kishi edi.

Qiyofasidagi ayrim jihatlar ruhoniyni, ayni paytda dengizchini ham eslatardi: keyinchalik u menga xitoysunoslik bilan shug'ullangunga qadar Ten-Chunda missioner bo'lganligi haqida hikoya qilib bergandi.

O'tirdik: men pastakkina uzun katga, u bo'lsa deraza bilan yumaloq soat o'tasiga joylashdi. O'zimcha hisoblab chiqdim: yaqin biror soat ichida meni ta'qib qilayotgan Richard Medden bu yerga yetib kelolmasa kerak. Qat'iy qarorimni biroz kechiktirsa ham bo'ladi.

- Ha, Syuy Penning taqdiri juda ajoyib, - deb boshladi Stiven Alber, - o'z yurtining hukmdori, astronomiya va astrologiya bilimdoni, qonunshunos olim, ajoyib shaxmat ustasi, mashhur shoir va xattot. U kitob va labirint yaratish uchun barcha narsalardan voz kechdi. Hukmdorlik, hukmronlik, hukmfarmolik lazzatlaridan, behisob go'zal joriyalardan, bazmu jamshid, ayshu ishratlardan, hattoki, o'zi egallagan barcha bilimlardan voz kechib, hayotining o'n uch yilini yolg'izlikda, Nurli Uzlat avyonida o'tkazdi. Uning o'limidan so'ng vorislari bir quchoq qo'lyozmalardan bo'lak biror narsa topa olmadilar. Sizga, albatta, ma'lum bo'lsa kerak, oila a'zolari bu qog'ozlarni yoqib yubormoqchi bo'lganlar, lekin uning vasiyatlarini ijrochisi bo'lgan dao maslagidami yoki buddaviylardanmi bo'lgan rohib bunga yo'l qo'yagan, nashr qilamiz, deb turib olgan.

- Biz, Syuy Penning avlodlari, - deb gap qistirdim, - shu payt-gacha o'sha ruhoniyni so'kib kelamiz. U qandaydir almoysi-aljoyi so'zlardan iborat, ma'nosiz bir narsani nashr qildirdi. Bu kitob bir-biriga qovushmaydigan so'zlardan iborat. Men u kitobni bir marta varaqlab chiqqanman: uchinchi bobda qahramon o'lgan, to'rtinchisida esa u yana tirik. Syuy Penning boshqa bir maqsadi bo'lgan labirintga kelsak...

- Labirint bu yerda, - dedi Alber baland, laklangan stolga ishora qilib.

- Fil suyagidan yasalgan o'yinchoq, - deya xitob qildim. - Jajji labirintcha...

- Ramziy labirint, - dedi u gapimni to'g'rilab, - ko'zga ko'rinxmas zamon labirinti. Men bir yovvoyi ingliz, o'sha sodda jumboqning tagiga yetdim. Yuz yildan ortiq vaqt o'tgach, tafsilotlarni qaytadan aniq tiklab bo'lmaydi. Lekin nimalar sodir bo'lganligini taxmin qilish mumkin. Menimcha, Syuy Pen bir paytda: "Men kitob yozish uchun ketaman", degan bo'lsa, boshqa bir paytda u: "Men labirint yaratish uchun ketaman", degan. Bu yerda gap bir narsa to'g'risida ketayotganligi hech kimning xayoliga ham kelmaydi. - Kitob va labirint aynan bir narsaning o'zi. Nurli Uzlat Ayvoni bog'ning o'tasida va ancha qarovsiz holda edi, shu sababli ko'pchilik labirintni moddiy narsa, deb o'ylaganlar. Syuy Pen o'lgach, u hukm surgan sultanatning biror joyida ham labirintni uchratganlari yo'q. Romanning almoysi-aljoyi - tushunib bo'lmash so'zlardan iboratligi meni bir fikrga undadi: balki shuning o'zi labirintdir. Bu muammoni hal etishda ikki muhim holat menga yordam berdi: birinchisi - bu Syuy Pen cheksiz-chegarasiz labirint qurmoqchi bo'lganligi haqidagi rivoyat bo'lsa, ikkinchisi - men topib olgan xatning bir bo'lagi.

Alber o'rnidan turib orqasiga bir lahza o'girildi va zarhal hoshiyali laklangan qora stol tortmasidan bir narsa oldi. U menga o'girilganda, qo'lida bir varaq qog'oz bor edi. Qog'oz ancha uringan, vaqt o'tishi bilan rangi ketib, yupqalashgan, buklangan joylari titilib ketgandi. Xattot sifatida qozongan shuhratga Syuy Pen haqiqatdan ham loyiq edi. Dovdiragan va qaltiroq bosgan holatda, qachonlardir menga qondosh bo'lgan inson nozik mo'yqalam bilan yozgan quyidagi so'zlarni o'qidim: Turli kelajak zamonlarga o'zimning tarmoqlangan so'qmoqlar bog'imni goldiraman (barcha zamonlarga emas). Jimgina o'qidim. Alber davom etdi:

- Men bu xatni topmasimdan oldin o'zimga-o'zim savol berdim: qanday qilib kitob cheksiz bo'lishi mumkin? Kitobdag'i oxirgi sahifa birinchi sahifani qaytarib turuvchi, behisob tarzda takrorlanuvchi charpalakdan boshqa biror arziguek fikr miyamga kelmadi. "Ming bir kecha" ertaklarini esladim. Malika Shahrizoda keyingi hikoyasini boshlashdan oldin undan oldingisini qolgan joyidan qaytarib, keyingisini esa tamom bo'lmasdan to'xtatardi. Va ertak shu zaylda uzlusiz davom etaveradi.

Yana Aflatunning "G'oyalar"i ruhida yozilgan asarlar haqida tasavvur qila boshladim. Undagi fikr avlodlardan-avlodlarga o'taveradi, yangi avlod o'zining oldingi ajdodi tomonidan yozilgan fikrga amal qilib, o'zi ham keyingi avlodlariga o'z fikrini qoldiraveradi, bu shu zayda uzlusiz davom etaveradi. O'ylaganlarim biroz bo'l'sa-da, menga tasallি berdi, lekin baribir bulardan birortasi ham Syuy Penning kitobidagi bir-biriga zid boblarga yaqin ham kelmasdi. Bu muammoni qanday hal qilishni bilolmay yurgan kunlarimning birida men Oksforddan mana shu siz ko'rgan xatni oldim. Tabiiyki, unda ifodalangan so'zlar meni o'ylatib qo'ydi: "Turli kelajak zamonlarga o'zimning tarmoqlanib ketgan so'qmoqlar bog'imni qoldiraman (barcha zamonlarga emas). Shu yerda tushunib yetdim - bir-biriga qovushmaydigan so'zlardan iborat bo'l'gan shu romanning o'zi "Tarmoqlangan so'qmoqlar bog'i" emasmikan: turli kelajak zamonlar (barcha zamonlarga emas) esa zamin so'qmoqlarini emas, balki zamon so'qmoqlarini bildiradi. Romanni yana bir karra o'qib chiqib fikrim to'g'ri ekanligiga amin bo'ldim. Har qanday roman qahramoni oldida bir necha yo'llar paydo bo'l'sa, u albatta, bittasini tanlaydi, qolganlarini chetga surib qo'yadi: Syuy Pen romanida esa qahramon barcha yo'llardan o'tadi va bu bilan u turli taqdirlarni, zamonlarni tasvirlaydi, o'z navbatida ular ham yana turli zamonlarga tarqab ketadi.

Romandagi qarama-qarshilik ham xuddi shu tufayli paydo bo'l'gan. Aytaylik, Fen bir sirdan xabardor, qandaydir begona kimsa unikiga keladi: Fen uni o'ldirishga jazm qiladi. Yozuvchining oldida yana boshqa bir necha taqdir yo'llari ham mavjud: Fen o'sha chaqirilmagan mehmonni o'ldirishi mumkin; mehmon ham Fenni o'ldirishi mumkin; ikkalasi ham tirik qolishi mumkin; ikkalasi ham halok bo'lishi mumkin va hokazo. Syuy Pen o'zining kitobida o'sha yuz berish ehtimoli bo'l'gan barcha oqibatlarni yoritib bergen, ularning har biri esa o'z navbatida boshqa so'qmoqlarga olib boraveran. Ayrim hollarda bu so'qmoqlar bir-birini kesib o'tishi ham mumkin: siz, ehtimol, mening oldimga keldingiz, lekin o'tmishda bo'lib o'tgan zamonlarning birida siz mening dushmanim, boshqa birida esa do'stim bo'lgandirsiz. Agar siz mening xitoychaga o'xshovsizroq talaffuzimga unchalik e'tibor bermasangiz, bir necha sahifani birga o'qib chiqishimiz mumkin.

Chiroq yorug'ida uning yuzi qarimsiq bo'lib ko'rinnardi, lekin ayrim yuz ifodalarida boqiylik sezilib turar, hatto mangulik muhrilanib qolgandek edi. U menga bir uzun bobning ikki xilini sekin, tushunarli qilib o'qib berdi. Birinchisida jangchilar tog' yon-bag'ridagi cho'ldan jangga ketib borardi. Qoyalari ko'chib, bosib qolish xavfi ostida zimiston qa'riga kirib borishar, hayotlari qil ustida turganligini o'yamasdan osongina g'alabani qo'lga kiritadilar. Boshqasida esa yana o'sha jangchilar saroydan aysh-ishrat eng avjiga chiqqan paytda ziyoftani jangning davomi deb yoki jang yolqinlarini ziyoftning davomi deb o'ylab, yana g'alabaga erishadilar.

Men bu qadimiy hikoyalarni chuqur hurmat va ehtirom bilan eshitdim, lekin ajablanarli joyi shundaki, bu roman allaqachon o'tib ketgan buyuk ajdodim tomonidan yozilgandi va men o'zimning qaltis ishimga qadam qo'yish arafasida dunyoning uzoq boshqa bir tarafidagi orolda, olis bir imperiyaning kishisi men uchun romanni yana jonlantirgan edi. Har ikki matn yakunida huddi duoibaddek quyidagi so'zlar xotiramda qolgan: "Qahramonlar qo'llarida o'tkir shamshirlar-u, beqiyos qalblarida osoyishtalik bilan, jasorat va mardlik ila dushmani o'ldirishga ham, o'zlar o'lishga ham tayyor holda jang qillardilar".

Shu onda mening atrofim va ichki olamimda ko'zga ko'rinnmas, allaqanday mavhum, jismsiz sharpalar yurganligini his etdim. Bu ro'yo shaxdam qadamlar bilan goh ajralib, goh qo'shilib, goh yonma-yon ketayotgan qo'shinlarni elas-elash eslatsta-da, lekin ularning harakatlari sirli, tutqich bermas va mavhumroq edi. Stiven Alber davom etdi:

- Sizning mashhur ajdodingiz bekorchilikdan, shunchaki o'zini ovutish uchun bu taxminlarni o'ylab topgan deya olmayman. Hayotining o'n uch yilini faqat so'z o'yinlariga sarflash haqiqatga unchalik to'g'ri kelmaydi. Roman janri sizning mamlakatingizda unchalik yuqori darajada emas, ayniqsa, o'sha davrlarda bu romanni yoqtirishmagan. Albatta, Syuy Pen ajoyib romannavis bo'l'gan, buning ustiga u adabiyotshunos ham edi. O'zini oddiy bir romannavis deb hisoblagan bo'l'sa kerak. Syuy Penning g'oyibona intilishlari metafizikaga, mistikaga qaratilganligi haqida uning zamondoshlari yozib ketgan, qolaversa, o'zining shaxsiy hayoti ham buni tasdiqlaydi. Uning falsafasidagi qarama-qarshiliklar romanda katta o'rinni egallaydi. Bitmas-tuganmas zamon muammosiga doir boshqa biror jumboq uni bunchalik qynamagan va hayajonlantirmagan. Nima bo'pti, dersiz? Shunisi hayron qolarlik, "Bog'" kitobining biror sahifasida ham bu muammo haqida biror marta eslatilmagan. Hatto, "zamon" so'zini biror marta bo'l'sa-da, ishlatmagan. Bu so'z haqida shunchalik sukut saqlashni qanday tushunish mumkin?

Men bir necha farazlarni taklif qildim, lekin ularning birortasi ham ishonchli emasdi. Biz masalani muhokama qila boshladik.

Oxiri Stiven Alber so'radi:

- Topishmoqning kaliti "shaxmat" so'zi bo'l'gan taqdirda, uni yechish uchun foydalanadigan so'zlar ichida qaysi bir yagona so'z uchramaydi?

Bir daqiqa o'ylab turib javob berdim.

- "Shaxmat" so'zi.

- Xuddi shunday, - Alber so'zimni ilib ketdi. - "Tarmoqlangan so'qmoqlar bog'i" - ulkan topishmoqning o'zi - "zamon" uning kaliti - asarda u sir tutilgan, eslatish ham taqiqlangan. Qandaydir bir so'z atrofida so'z o'yini qilish, unga turli metaforalar orqali ishora qilish usuli, bu o'sha so'zga e'tiborni qaratish yo'llaridan biri bo'l'shi, ehtimol. Syuy Pen o'zining tunganmas romanidagi har bir burilishda shunga o'xshagan aylanma yo'llar qo'llashni lozim ko'rgan. Men bu asarning yuzlab qo'lyozmalarini taqqoslab chiqdim, ko'chirishda noshud kotiblarning e'tiborsizligi tufayli yo'l qo'yilgan xatolarni qo'l'midan kelgancha tuzatdim, tartibga keltirdim va umid qilamanki, o'ylaganimdek, hozirgi ko'rinishda muallif ko'zlagan shaklga keldi. Kitobni to'la tarjima qildim va amin bo'ldimki, "zamon" so'zi biror marta ham tilga olinmagan. Jumboqning yechimi tayyor: "Tarmoqlangan so'qmoqlar bog'i" - olamning o'zgartirilmagan haqiqiy ko'rinishidir. Syuy Pen olamni xuddi shu tarzda ko'rgan, idrok qilgan. Bobokaloningiz bizning Nyuton va Shopengauerdan farqli o'laroq vaqt yagona va mutlaq ekanligiga ishonmagan. Zamonnini son-sanoqsiz tizimlardan iboratligi, uning o'sishi, aql bovar qilmas darajada tarqalushi, birlashuvi, yonma-yon mavjud bo'l'ishiga ishongan. Zamonnining bunday jilolanishi - uning birlashuvi, tarqalushi, kesishuvi yoki asrlar davomida umuman kesishmasligi - aql-idrokimiz yetgan darajadagi ehtimolliklarni o'z qamroviga oladi. Ko'p zamonda ham, biz siz bilan mavjud bo'l'maganmiz, ayrimlarida siz bo'lgansiz, men esa bo'l'maganman, men bor, siz yo'q, boshqasida har ikkimiz ham bo'l'ganmiz. Zamonnarning birida, ya'ni baxtli tasodif menga kulib boqqanda, siz mening uyim-ga keldingiz, boshqasida bog'dan o'tayotib mening jasadimni topdingiz, uchinchi bir zamonda esa men sizga shu so'zlarni aytib turibman-u, lekin o'zim esa sarobman, sharpaman.

- Har qanday zamonda ham, - dedim, titrog'imni bazo'r yashirgan holda. - Syuy Penning bog'ini qayta jonlantirganligingiz uchun

This is not registered version of TotalDocConverter
mihmadorning shaxsiy qismi

- Har qanday zamonda emas, - tabassum ila g'uldiradi u. - Abadiy yoyila borib zamon bizni kelajakda son-sanoqsiz variantlarga yetaklaydi. Ularning birida men sizning dushmaningizga aylanganman.

Men yuqoridagi holatimga yana qaytib tushdim: uy atrofidagi rutubatli bog' son-sanoqsiz shaffof odamlarga to'la tuyuldi. Bular Alber bilan men edim, faqat boshqa zamonlar o'lchamlarida harakat qilayotgan o'zgargan, tanib bo'lmas holda edik. Bog'ning sarg'imtil-qorong'i joyidan bir kishi kelayotganini ko'rdim. U Richard Medden edi.

- Kelajak ostonasida turibmiz, - dedim uning gapini inkor qilib, - harqalay, men sizning do'stingizman. O'sha xatga yana bir bora ko'z tashlashga ruxsat eting.

Alber o'rnidan turib qora stol tortmasini surdi va bir lahza menga orqasini o'girdi. To'pponcham allaqachon tayyor holda edi. Mumkin qadar mo'ljalni to'g'ri olib o'q uzdim. Alber shu ondayoq unsiz yiqlidi. Qasam ichamanki, xuddi chaqmoq urgandek, shu lahzadayoq jon berdi.

Qolgan narsalarning unchalik ahamiyati yo'q. Bostirib kirgan Medden meni shu yerdayoq qamoqqa oldi. Meni osib o'ldirishga hukm qilishdi. Voqeа qanchalik dahshatl bo'lmasin, men g'alaba qozondim: hujum qilish kerak bo'lgan joy nomini Berlinga xabar berishga ulgurdim. Kecha u joyni bombardimon qilishdi. Taniqli xitoysunos olim Stiven Alberga nisbatan uyushtirilgan sirli qotillik haqida, uni allaqanday Yu Sun ismli kimsa sodir etganligi haqidagi xabar butun Angliya bo'y lab gazetalarda tarqatilganligini bildim. Boshlig'imiz bu jumbojni hal qildi. Men yechishim lozim bo'lgan asosiy masala - Alber shaharchasi nomini unga yetkazish ekanligi endi unga ma'lum. Atrofda bo'layotgan urushning dahshatl aks-sadolari ostida shunday ismli odamni o'ldirishdan boshqa choram yo'q edi. Faqat yengib bo'lmas og'riq va charchoq qanchalik meni qiyayotganligidan uning xabari yo'q. Buni hech kim va hech qachon bila olmasa ham kerak...

B†‘ Keb faytun.